



ISSN 2091-5187

СЕРВИС

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ
ЖУРНАЛ

№2

2026



SERVIS

ILMIY-AMALIY JURNAL 2026 -yil, 2-soni

Muassis: Samarqand iqtisodiyot va servis instituti

O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligi tomonidan 2008-yil 31-dekabrda
0561-raqam bilan ro‘yxatga olingan.
O‘zR OAK Riyosatining 19.03.2017 y., 239/5-sonli qarori bilan e’tirof etilgan

Tahririyat a’zolari:

Mas’ul kotib:

i.f.d., prof. M.Q.Pardayev

Muharrirlar:

i.f.d., dotsent F.A.Safarov
PhD, dotsent I.M.Pardayeva
PhD, I.Sh.Ernazarova

Texnik muharrir:

katta o‘qituvchi F.O.O‘roqov

Korrektor:

PhD, dotsent v.b.
T.I.Yahyoyev

Sahifalovchi:

PhD, dotsent v.b.
H.N.Ochilova

1 yilda 4 marotaba
chop etiladi.

**O‘zbekiston hududida
tarqatiladi.**

Tahririyat manzili:

140100, Samarqand shahar,
Amir Temur ko‘chasi, 9-uy,

tel.: +998(66)233-28-38,
+998(97)913-74-40

faks: +998(366)231-12-53
el.pochta:

samisiservis@mail.ru

Tahrir hay’ati raisi:

M.E.Po‘latov – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti rektori,
i.f.d., professor

Tahrir hay’ati raisi o‘rinbosari:

O.M.Pardayev – SamISI prorektori, iqtisod fanlari doktori,
professor

Tahrir hay’ati a’zolari:

M.M.Muxammedov – SamISI professori, iqtisod fanlari
doktori

D.R.Zaynalov – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

O.M.Murtazayev – TDIUSF direktori, iqtisod fanlari doktori,
professor

M.R.Boltabayev – TDIU professori, iqtisod fanlari doktori

R.X.Ergashev – QarMII professori, iqtisod fanlari doktori

B.K.G‘oibnazarov – iqtisod fanlari doktori, professor

I.S.To‘xliyev – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

K.B.Urazov – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

D.H.Aslanova – iqtisod fanlari nomzodi, professor

Q.J.Mirzayev – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

B.I.Isroilov – TDIU professori, iqtisod fanlari doktori

G.M.Shodiyeva – SamISI professori v.b., iqtisod fanlari doktori

S.N.Toshnazarov – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

R.N.Normaxmatov – SamISI professori, texnika fanlari doktori

A.Bektemirov – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

M.T.Alimova – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

Z.Dj.Adilova – TDIU professori, iqtisod fanlari doktori

Sh.O.Quvondiqov – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

L.N.Xalikova – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

F.A.Safarov – SamISI dotsenti, iqtisod fanlari doktori

A.M.Karimova – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

I.B.Mattiyev – SamISI professori, pedagogika fanlari doktori

B.F.Boronov – SamISI professori v.b., iqtisod fanlari doktori

A.N.Xoliqulov – SamISI professori, iqtisod fanlari nomzodi

X.A.Raximov – SamISI dotsenti, PhD

S.A.Babanazarova – SamISI dotsenti, PhD

H.N.Ochilova – SamISI dotsenti v.b., PhD

I.R.Berdikulova – SamISI dotsenti v.b., PhD

A.Q.G‘apparov – SamISI dotsenti v.b., PhD

TURIZM VA MEHMONXONA XO‘JALIGI	
Jahongir Rasulovich Zaynalov, Muxabbat Ismatjon qizi Umirzoqova Kambag‘allikni qisqartirishda turizm xizmatlarining o‘rni	63
Озода Мамаюнусовна Пардаева “Ақлли туризм” соҳасида оилавий тадбиркорлик тизимини ривожлантириш йўналишлари	67
Райхона Садриддиновна Амриддинова, Мехринисо Мирзохидовна Кахрамонова Тренды устойчивого туризма и их применение в Узбекистане	71
Farida Abduxalimovna Axmedjanova, Kamola Abdumurodova, Dilnoza Shokirova O‘zbekistonda turistik xizmatlarni standartlashtirish va sertifikatlashtirish tizimini takomillashtirish yo‘llari	77
Ziyovuddinxon Toshbolta o‘g‘li Bakayev Turizm va mehmondo‘stlik industriyasida turistik dala hovlilar tomonidan ko‘rsatilayotgan xizmatlar samaradorligini oshirish yo‘llari	80
Камилла Бахромовна Суюнова Современные маркетинговые подходы в туризме	87
Muhriddin Husniddin o‘g‘li Qilichov Buxoro tarixiy markazidagi meros obyektlarida turistik sig‘im imkoniyatlari	91
Raxmatulla Hayitboyev, Bobir Zoirovich To‘qsonov Buxoro viloyatida turizmni rivojlantirish istiqbollari	98
Лариса Алижоновна Мусабаева, Тимур Ибодуллаевич Ибрагимов Гули Авазхон қизи Ганиева Оценка конкурентоспособности туристических предприятий на региональном рынке	102
Nurbek Janon o‘g‘li Toshev Mintaqaviy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishda turizm sohasining konseptual modelini takomillashtirish	105
Raxmatulla Hayitboyev, Shohzod Baxtiyor o‘g‘li Sadinov, Feruz Yorqin o‘g‘li Hasanov Navoiy viloyatida turizmni rivojlantirish istiqbollari	110
Nilufar Xabibjonovna Xolboyeva, Rayxona Sadriddinovna Amriddinova Gruziya tajribasi asosida O‘zbekistonning rekreatsion turizm sektorini rivojlantirish imkoniyatlari	113
Kamol Sharifovich Yuldashev Buxoro viloyatida avtoturistlar uchun “Avtoturargoh” loyihasini amalga oshirish istiqbollari	116
Temurbek Salomov Ziyorat turizmining barqarorligini oshirish va xizmatlar sohasiga ta’siri	122
MENEJMENT VA MARKETING	
Azizjon Isroiljonovich Ibroximov, Mashxura Toirxonovna Alimova Oliy ta’lim muassasalarida KPI tizimini samarali joriy etish va yuritish	126
Xilola Nematovna Ochilova Boshqarish tizimida raqobatbardoshlikni oshirishda karyerani rivojlantirish texnologiyalarining ahamiyati	130
Navruzbek Zarifovich Niyatov Xizmat ko‘rsatish sohasida boshqaruvni takomillashtirish	135
Samar Safarovich Bozorov Mintaqa milliy turizm bozorining kotent marketing brendining shakllanish darajasi	139
Sadulla Shodiyevich Urazov Tashkilot boshqaruvida CAPI modelidan foydalanishning nazariy va amaliy asoslari	143

Ziyovuddinxon Toshbolta o‘g‘li Bakayev – Sh.Rashidov nomidagi SamDU, “Raqamli iqtisodiyot” kafedrası mudiri, PhD

TURIZM VA MEHMONDO‘STLIK INDUSTRIYASIDA TURISTIK DALA HOVLILAR TOMONIDAN KO‘RSATILAYOTGAN XIZMATLAR SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada mamlakatimiz olimlarining adabiyotlarida ilgari mavjud bo‘lmagan yangi turizm obyekti sifatida “turistik dala hovli” tushunchasiga maxsus tarif ishlab chiqilgan hamda “turistik dala hovli”lar (dachalar) tomonidan ko‘rsatilayotgan xizmatlar samaradorligini baholash uslubiyotini takomillashtirishga qaratilgan tadqiqot olib borilgan.

Kalit so‘zlar: “turistik dala hovli”, milliy reysr, model, turistik joylashtirish obyektlari, qisqa muddatli ijara, turistik xizmat, xizmat sifati, online bronlar, ijarachi-mehmon.

Kirish. Jahon tajribasiga qaraydigan bo‘lsak qisqa muddatli ijaraga beriladigan turistik joylashtirish obyektlari (dacha, holiday home, vacation home, villa, cabin, cottage) mehmondo‘stlik va turizm industriyasining eng jadal rivojlanib borayotgan segmentlaridan biri sanaladi. Xususan, Oxford Economicsning turizm iqtisodiyotiga bag‘ishlangan hisobotida “Qisqa muddatli ijaralarning daromadi Yevropa Ittifoqi bo‘yicha 149 milliard yevro daromad keltirgan holda 2,1 millionta yangi ish o‘rinlari yaratgan”¹. Mazkur statistika qisqa muddatli ijara uylarining iqtisodiy rivojlanishga ta‘sirni, mahalliy aholining ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash hamda ichki turistlarga moslashuvchan hamda arzon turar joylarni taklif qilish lozimligini ko‘rsatmoqda.

Yevropa Ittifoqida qisqa muddatli ijaraga beriladigan uy joylarning 55 foizidan ortig‘i shahar markazidan uzoqda joylashgan. Bu orqali turizmning iqtisodiy samarasini doimiy diqqatga sazovor manzillardan tashqari chiqishiga imkon beradi. Bu orqali eng muhim natija ya‘ni turistlarning mamlakatda qolish davomiyligi ortadi.

Respublikamizda ham turizm industriyasini rivojlantirishga qaratilayotgan e‘tibor tufayli ichki turizmning faollashuvi orqali turistik dala hovlilar mahalliy aholining shahar shovqinidan uzoq hududlarda dam olishga bo‘lgan talabini qondirishda muhim o‘rin tutmoqda. Bu jarayon Covid-19 pandemiyasidan keyingi davrda mamlakatlar o‘rtasidagi chegaralarning ma‘lum bir muddatga yopilishi natijasida mamlakatlar o‘z ichidagi tabiiy turizm resurslaridan ichki turizmni rivojlantirish maqsadida foydalanishga bo‘lgan talab yanda ortdi. Aholi o‘rtasida oilaviy, yopiq hamda alohida turistik dala hovlilarda dam olishga bo‘lgan moyillik kuchayib bordi. Bu esa o‘z navbatida turistik dala hovlilar kabi joylashtirish obyektlari soni ortishiga hamda ularning turizm va mehmondo‘stlik industriyasida mustaqil bozor subyekti sifatida shakllanishiga olib keldi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Turizm va mehmondo‘stlik industriyasini rivojlantirishda turistik xizmatlar samaradorligini oshirishning metodologik-uslubiy asoslarni takomillashtirish qaratilgan bir qator iqtisodchi olimlarning tadqiqot ishlarini olib borishgan. Xususan, E.A.Telfer., P.S.Piboonrungraj., J.G.Ritzer., C.Lashley., A.Morrison., K.O‘.Gorman., B.Brother-ton., N.Leiper., V.S.Senin., N.N.Zorin., G.N.Kutepova kabi olimlar turizm va mehmondo‘stlik sohasidagi xizmatlar samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy ishlar olib borishgan.

Mamlakatimizda ham turizm va mehmondo‘stlik industriyasida xizmatlar samaradorligini oshirishga doir nazariy-uslubiy jihatlar bir qator iqtisodchi olimlar, jumladan, Q.X.Abduraxmonov, N.Tuxliyev, I.S.Tuxliyev, A.A.Eshtayev, B.Sh.Safarov, M.T.Aliyeva, A.N.Norchayev, M.T.Alimova, N.Sh.Mansurova va boshqalar tomonidan o‘rganilgan. Ushbu olimlarning tadqiqotlarida turizm xizmatlar bozorini rivojlantirish, mehmondo‘stlik industriyasida xizmatlar sifatini oshirish hamda turizm sohasini takomillashtirish kabi masalalar yoritilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot jarayonda guruhlash, taqqoslash, iqtisodiy-statistik, qiyosiy tahlil, tizimli tahlil, induksiya-deduksiya, empirik tahlil, kontent tahlil, SWOT tahlil, abstakt-mantiqiy yondashuv, ekspert baholash, ekonometrik modellashtirish, tadqiqot obyektlari va olingan natijalarni bayon etish kabi usullardan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yilning 19-noyabr oyidagi PQ-348-son “O‘zbekiston Respublikasi Turizm qo‘mitasi faoliyatini tashkil etish va

¹ https://www.tourismeconomics.com/press/in-the-news/short-term-rentals-generate-149b-economic-impact-2-1m-jobs-across-eu-in-2023/?utm_source=chatgpt.com

turizm sohasini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”¹ gi qarorida “turistik dala hovli” tushunchasini kiritish hamda ularning reyestrini shakllantirish kabi vazifalar qo‘yilgan bo‘lib, biz o‘z tadqiqotimizda mazkur tushunchaga mualliflik tarifimizni keltirib o‘tganmiz.

“Turistik dala hovli” deb tabiiy hududlarda (tog‘, suv havzalari, o‘rmon, rekreatsion zonalar) joylashgan, turistlarning qisqa va uzoq muddatli dam olishini, hordiq chiqarishni ta‘minlashga xizmat qiluvchi, ko‘p hollarda ijara shaklida faoliyat olib boradigan, mavsumiylik omillariga ta‘sirchan bo‘lgan hamda xizmat ko‘rsatishdan ko‘ra tayyor shart-sharoitlarni (infratuzilmani) taqdim etishga qaratilgan turistik obyektdir”² deb tariflab o‘tganmiz.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yilning 19-noyabr oyidagi PQ-348-son qarorda turistik dala hovlilarning milliy reyestrini shakllantirish hamda uni milliy turizm yagona platformasiga integratsiya qilish kabi aniq chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqilgan bo‘lib, mazkur vazifalarning ijrosi sifatida turistik dala hovlilarning milliy reyestrini shakllantirishning konseptual modelini taklif qilganmiz. (1-rasmga qarang)


1-rasmda keltirilgan modelda turistik dala hovlilar haqida rasmiy raqamli ma‘lumotlar bazasini shakllantirishning konseptual modeli keltirilgan bo‘lib, bunda turistik dala hovlining nomi, qayerda joylashganligi (lokatsiyasi), egasi haqida ma‘lumot, xonalarning soni va potsensial, xizmat turlari, litsenziyadan o‘tganligi hamda obyektning rasm va videolari joylanadi. Ushbu reyestr milliy turizm yagona platformasi bilan hamkorlikda ishlaydigan tizim hisoblanadi. Ushbu modelda kutilayotgan natijalar quydagicha:

Birinchidan, turistik dala hovlilar faoliyati tartibga solinadi;

Ikkinchida, xufiyona turizm xizmatlari kamaytiriladi;

Uchinchidan, turizm bilan bog‘liq statistikaning aniqligini oshiradi;

To‘rtinchidan, qishloq, ovul turizmi hamda tabiiy hududlar rivojlanadi.



1-rasm. Turistik dala hovlilarning milliy reyestrini shakllantirishning konseptual modeli³

Turistik dala hovlilarning mohiyati ularning xizmat ko‘rsatish modeli bilan belgilanadi. Odatdagi joylashtirish vositalaridan farqli ravishda turistik dala hovlilarda xizmatlar ko‘pincha ijaradan oldin tayyorlab qo‘yiladi hamda ijaraga berish jarayonida doimiy xizmat ko‘rsatish

¹ <https://lex.uz/docs/-7851788>

² Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

³ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

amaliyoti cheklangan bo‘ladi. Tadqiqotlarimiz natijasi shuni ko‘rsatmoqdaki turistik dala hovlilarda (dachalar) xizmat ko‘rsatish samaradorligi mehmonxonalar yoki boshqa bir joylashtirish vositalari kabi kundalik operatsion jarayonlarga emas, balki tayyorlash jarayonlarining tezligi va ijara shartlarining aniqligi hamda real foydalanish sifatlariga bog‘liqdir. Respublikamizdagi aksariyat turistik dala hovlilar 19:00 da kirish hamda 22 soatdan keyin 17:00 da chiqish rejimida ish olib borishmoqda. 24 soatning 92 foiz qismi faol jarayon amalga oshirilib qolgan 8 foizida esa obyektni tozalash ishlari amalga oshiriladi. Bu esa ushbu obyektlarning vaqt resurslaridan foydalanish samaradorligini baland ekanligini anglatadi.

Turistik dala hovlilarning yana bir muhim bo‘lgan faoliyati bu ularning ko‘p hollarda norasmiy yoki qisman rasmiy deb atash mumkin bo‘lgan iqtisodiy muhitda faoliyat olib borishadi. Respublikamizdagi mavjud turistik dala hovlilarning katta qismi YaTT yoki jismoniy shaxsar tomonidan boshqariladi. Bu degan ushbu jarayonlarda boshqaruv tizimining o‘ta soddaligi, statistik ma‘lumotlar olishning cheklanganligi hamda xizmat sifatiga doir yagona mezonning mavjud emasligi bilan tavsiflanadi. Bu orqali mehmonxonalar uchun ishlab chiqilgan an’anaviy menejment hamda samaradorlik ifodalovchi modellarni turistik dala hovlilar faoliyatiga joriy etish aksariyat hollarda kutilgan natijani bermaydi.

Turistik dala hovlilarning faoliyati iste‘molchi xatti-harakati bilan to‘g‘ridan – to‘g‘ri bog‘liq. So‘rovnoma hamda amaliy kuzatuvlar natijalari shuni ko‘rsatmoqdaki ijarachilar turistik dala hovlini tanlashda eng avvalo qulaylikgi (konfort darjasi), xususiylik, tabiiy muhit, joylashuv va narx-navoga alohida e‘tibor qaratmoqda. Bu kabi jarayonda xizmat sifati mehmonxonalardagi kabi jarayonli ravishda emas balki “va‘da qilingan holat (ijtimoiy tarmoqlardagi (telegram, instagram) platformalar (bronlar.uz, olx.uz, booking.com)dagi video va rasmlar) bilan amalda real holatdagi holat” orasidagi moslik bilan baholanadi. Agar ijtimoiy tarmoq va maxsus platformalarda e‘lon qilingan rasm hamda videolar real holatga mos kelmasa yoki undan ko‘ra yuqori bo‘lsa mijoz qoniqishi oshadi yoki aksincha.

Ilmiy jihatdan qaralgan turistik dala hovlilar turizm xizmatlarining muqobil hamda moslashuvchan shakli bo‘lib ular hududiy turizmni rivojlantirish, ichki turizm oqimini kengaytirish hamda aholi bandligini ta‘minlashda muhim o‘rin tutadi. Shu sababdan ushbu obyektlarning o‘ziga xos xususiyatlari ularni baholash va boshqarishda yangicha maxsus yondashuvlar va mualliflik modellarini ishlab chiqish zaruratini to‘g‘dirmoqda.

Shu sababdan ham turistik dala hovlilar (dachalar) va mehmonxonalar o‘rtasidagi o‘xshash va farqli jihatlarini yoritib o‘tamiz. Turistik dala hovlilar ham, mehmonxonalar ham turizm va mehmondo‘stlik industriyasining asosiy tarkib qismi bo‘lib, ikkisi ham vaqtinchalik mehmonlarni joylashtiruvchi vositalar hisoblanadi. Ammo ushbu joylashtirish obyektarining mohiyati, xizmatlar sifati va hududiy rivojlanishga ta‘sir darajasi bir necha jihatlar sababli farqlanadi. Mehmonxona va turist bu klassik yondashuv hisoblansa turistik dala hovlilar va mehmon bu yangicha yondashuvlarni ishlab chiqish zaruratini keltirib chiqarmoqda. Turistik dala hovlilar tarqoq va yashirin iqtisodiyotning ayrim jihatlariga mosroq faoliyat hisoblanadi. (1-jadval).

1-jadval

Mehmonxona va turistik dala hovlilar (dachalar) orasidagi samaradorlikni ifodalovchi asosiy metodologik farqlar¹

Mezonlar	Mehmonxonalar	Turistik dala hovlilar (dachalar)
Xizmat sifati bo‘yicha	Xizmat sifati “xizmat ko‘rsatildi” yoki “ko‘rsatilmadi” mezoni asosida baholanadi	Sifat esa “vada qilingan holat” hamda “real holat” asosida baholanadi
Model bo‘yicha	Markazlashgan model. Qariyb barcha xarajatlar obyekt ichida jamlanadi	Markazlashmagan model. Xarajatlar hudud buylab tarqaladi
Xizmat ko‘rsatish tizimiga asosan	Yotoq joy, ovqatlanish va qolgan xizmatlar bitta subyekt tomonidan ko‘rsatiladi.	Turar joy (dacha) va qolgan xizmatlarning katta qismi mahalliy bozor orqali olinadi

¹ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.


Mehmon harajatlarining taqsimlanishiga asosan	Xarajatlarning asosiy qismi mehmonxona xizmatlarga bog'langan	Savdo, transport, qishloq xo'jaligi va xizmatlar sohasiga keng yoyiladi
Iste'molchi roli	“Mehmon” tayyor xizmat paketini iste'mol qiluvchi	“Ijarachi-mehmon” asosiy xizmatlarni o'zlari bajaradi.
Ijtimoiy iqtisodiy ta'siri	Yirik va o'rta biznesni rivojlantiradi	Kichik biznes, oilaviy tadbirkorlik va norasmiy sektorni qo'llab quvvatlaydi
Ish bilan bandlikka ta'siri	Markazlashgan hamda barqaror bandlik	Tarqoq
Hududlar rivojiga ta'siri	Turistik markazlar, klasterlar va yirik obyektlar rivojiga xizmat qiladi	Qishloq turizmi, mahalla turizmi hamda ovul turizmini yanda rivojlantirish asosida infratuzilmani yaxshilaydi.
Xizmat ko'rsatish jarayoni	Xizmat ko'rsatish jarayoni muntazam ravishda 24/7 rejmda	Uylar bir butun obyekt sifatida ijaraga beriladi. Xizmat ko'rsatish jarayon muntazam emas.
Bandligi darajasi	Band darajasi xonalar bilan hisoblanadi	Bandlik: ijarada bo'lsa 100 foiz band yoki bo'sh bo'lsa 0 foiz.
Jarayon bosqichi	Bron qiladi, keladi, yashaydi, xizmatlardan foydalanadi, ketadi	Xizmar diyarli barcha xollarda oldindan tayyorlanadi. Foydalanish jarayoni ikki bosqichda amalga oshiriladi. Tayyorlanadi va foydalaniladi.

1-jadval ma'lumotlariga qaraydigan bo'lsak turistik dala hovlilar metodologik jihatdan mehmonlar va boshqa shu kabi joylashtirish obyektlaridan farq qiladi. Biz o'z tadqiqotimizda aynan mana shu kabi muammolarni borligi sababli turistik dala hovlilarning turizm va mehmondo'stlik industriyasini rivojlantirishdagi potensialini inobatga olgan holda ushbu turistik dala hovlilardan foydalanish samaradorligini aniqlashga harakat qilganmiz.

Turistik dala hovlilarning xizmat ko'rsatish sifatini belgilovchi asosiy omillardan biri sayt yoki platformadagi holatga mos emasligi, ayrim jalb qiluvchi texnologiya yoki vositalarning ishlamay qolishi, internet bilan bog'liq muammolar va avtoturargohga avtomobillarning joylash sig'imi torligi va risklar bilan bog'liq. Biz o'z ishimizda turistik dala hovlilarning samaradorligini belgilovchi asosiy faktorlarni tahlil qilib o'tganmiz. (2-rasmga qarang).

2-rasmda ko'rinib turibdiki turistik dala hovlilarda xizmat ko'rsatish difati hamda uning shakllanish jarayonlari tizimli tarzda yoritib o'tilgan. Ushbu rasmda turistik dala hovlilarda samaradorlikni ta'minlovchi omillar aks ettirilgan. Ushbu mualliflik yodashuvimizning negzi xizmatlar iqtisodiyoti hamda menejment nazariyalariga asosan xizmat ko'rsatish sifati va samaradorligi faqatgina moddiylik yoki xizmat ko'rsatish faoliyatigagina bog'liq emasligi hamda ushbu sifat va samaradorlik ko'plab o'zaro bog'langan omillarning integratsiyasi natijasida vujudga kelishini bildiradi.

Binoning tayyorligi va jihozlanishi bilan bog'liq omillar turistik dala hovlilarning ilk sifat ko'rsatkichi hisoblanib u mijozlarda ijobiy tasavvurini shakllantiruvchi eng muhim jihatlardan biri hisoblanadi. Tozalik darachasi, inventarlarning texnik holati, qo'shimcha qulayliklarning mavjudligi (yozgi va qishki basseyn, sauna, maishiy texnikalar, yotoq jihozlari, idishlarning mehmonlarga sig'imiga mosligi va boshqalar) xizmatning moddiy ko'rinishi ifodalaydi. Bron.uz va OLX dagi turistik dala hovlilar haqidagi e'lonlarga berilgan izohlarda aynan shu yuqoridagi jihatlar ijarachi-mehmonlarda ilk taassurotni shakllantirgan holda xizmatdan qoniqish darajasini belgilaydi. Xizmat ko'rsatish jarayoni turistik dala hovlilarda xizmatlar sifatining eng muhim hamda ajralmas qismi hisoblanadi. Mijozlarni qabul qilish, kalitni topshirish, hujjatlashtirish hamda ijarachi-mehmonlarning ketish vaqtida to'lovlarni qabul qilish va nazorat bosqichlarini soddaroq qilish xizmatdan foydalanish qulayligini oshiradi. Ushbu jihatlar qanchali tizimlashtirilgan bo'lsa xizmat ko'rsatish samaradorligini oshirgan holda mijozning vaqtini ham tejashga imkon beradi.



2-rasm. Turistik dala hovlilarning samaradorligini ta'minlovchi asosiy omillar hamda xizmat ko'rsatish jarayonining umumiy harakat bosqichlari¹

Xavfsizlik va haridorga moslashuvchanlik kabi jihatlar esa xizmatning barqarorligini hamda ishonchliyligini ta'minlovchi muhim omillarda biri hisoblanadi. Bu jarayonda eng muammoli holat mijoz ishonchini oqlashga qaratiladi. Bu esa mijozning oldinda band qilish uchun omonat summasini tashlashda havf xatarni kamaytiradi. Bu uchun depozit tizimini shaffofligini ta'minlashni ta'lab qiladi. Texnika xavfsizligi, yong'in xavfsizligi va videokuzatuv tizimni shaffofligini ta'minlash mijozlar ishonchini oshiradi. Bundan tashqari turistik dala hovlilarda (dachalarda) zamonaviy talablarga mos xizmatlarni hamda mijozlarga moslashuvchan boshqaruvnu shakllantirish rqaobat bozorida ustunlik beradi. Raqamlashtirish tizimi esa turistik dala hovlilarda kommunikatsion samaradorlikni belgilovchi eng muhim zamonaviy jihatlardan biri hisoblanadi. Bron qilish tizimi (Bron.uz) , mijoz bilan tezkor aloqa (sayt, platformalar, ijtimoiy tarmoqlar, telefon), xizmatlar bo'yicha aniq ma'lumotlarning mavjudligi mijozning qaror qabul qilish bosqichini onsonlashtiradi. Raqamli texnologiyalarning rivojlanganligi xizmat sifati haqidagi tushunmovchiliklarni kamaytirib, xizmatdan foydalanish jarayonini soddalashtiradi va mijozlarning ishonchini oshiradi.

Shart-sharoit holati va potentsialdan foydalanish mijozlarni jalb qilishdagi eng muhim omillarda biri hisoblanadi. Bunda transport qulayligi, dam olish maskaning qiziqarli joylarga yaqinligi, hududiy potentsial hamda qo'shimcha xizmatlarning mavjudligi turistlar oqmini tabiiy ravishda oshirishga xizmat qiladi. Chunki turistik dala hovlilarning (dacha) komfortligi faqatgina binoning o'zi bilan belgilanmaydi unga tashqi tabiiy muhit ham ta'sir qiladi. Yana bir muhim jihat shundaki turistik dala hovlilar orqali mahalla turizmi, qishloq turizmi hamda ovul turizmi

¹ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan

ham bog‘likda rivojlantirish imkoni mavjud.

O‘zbektonda turizm va mehmondo‘stlik industriasini rivojlantirishda, albatta, turistik dala hovlilarning (dachalar) umumiy potensialidan to‘liq foydalanganimiz yo‘q. Shu sababda biz o‘z tadqiqotimizda turistik dala hovlilardan ichki va kiruvchi turizmni rivojlantirishda yanda faolroq foydalanishimizning umumiy tahlilini keltirib o‘tishni joiz deb topdik. Shu nuqtai nazardan kelib chiqqan holda turistik dala hovlilardan foydalanishning SWOT tahlilini keltirib o‘tamiz. (3-rasm)

SWOT TAHLIL	
Kuchli tomonlari	Zaif tomonlari
✓ Binoning yakka bir butunlikda ijaraga berilishi: bir turistik dala hovli bir daromad banbai ✓ Xususiylik hamda erkinlik: oila, do‘stlar va hamkasblarning erkinligi. ✓ Yaxlit infratuzilma: sauna, oshxona, basseyn, PS5, karaoke, bliard, hovli va h.k. ✓ Boshqaruv qulayligi: mehmonxonalar singari murakkab bo‘limlar shart emas. ✓ Tezkor daromad keltirish: kunlik ijara tizimi orqali tez pul oqimi. ✓ Ichki turizm uchun mos. oila, qarindoshlar, sinfdoshlar, kursdoshlar segmenti. ✓ Raqamli texnologiyalar asosida tez sotilishi (bron.uz, telegram, instagram va h.k.) ✓ Hududiy turizmni rivojlantiradi. (hududlarning ijtimoiy holatini rivojlantiradi)	✓ Mavsumiylik: ayrim davrlarda talab kamayib ketadi. ✓ “Va’da va real holat” orasidagi farq. Reklamadagi rasmlar, videolar va haqiqiy holat o‘rtasidagi farqning mavjudligi. ✓ Servis tizimi cheklangan: 27/7 xizmat ko‘rsatish tizimining yo‘qligi. ✓ Sifat standartlari bir xil emas: Binolar (dachalar) obyektlar bir biridan keskin farq qiladi. ✓ Inventar buzilishi va zaralar yuqori: mebel, texnika, idishlar. (idishlar sinadi, bliard kiyi sinadi, pulklar sinadi, ayrim texnikalarning rejimi o‘zgaradi) ✓ Kommunal xizmatlarga bog‘liqligi va ushbu xizmatlarning avtanomligi. suv, elektr uzilishi katta zarar. ✓ Yashirin iqtisodiyotning mavjudligi. Hisobi yuritilmaydi va to‘g‘ridan to‘g‘ri soliq tulasmasligi.
Imkoniyatlar	Tahdidlar
✓ Turistik dala hovlilar tizimini turizmning alohida segmenti sifatida rivojlantirish. ✓ Raqamlashga boshqaruvni to‘liq joriy qilish. Bron, nazorat, reyting tizimlari asosida. ✓ Milliy sifat standartlarini ishlab chiqish va joriy qilish. ✓ Mavsumiy paketlar tayyorlash. Yozgi va qishqi basseyn, narxlarning bayram hamda dam olish kunlaridan tashqari kunlarda arzonlashtirish ✓ DXSH tizimi asosida infratuzilmani yana yaxshilash. Yo‘llar, internet, kommunikatsiya, chiqindilarni tashishda. ✓ Ekodachalar konsepsiyasini ishlab chiqish. Yashil energiyadan foydalanish, tejamkor texnikalar.	✓ Raqobat bozorining kuchayishi. Turistik dala hovlilar soni ortib ketsa narxlarga ta’sir qiladi ✓ Salmiy izohlar ta’siri. Platforma va shunga uxshash ilovalarda mijoz fikri ta’siri kuchli. ✓ Resurslar narixning oshib ketishi. Elektr, gaz, suv, ta’mirlash ishlari. ✓ Tabiiy hatlarlar. Yo‘llarning muzlama bo‘lishi, suv tanqisligi, yog‘ingarchililar. ✓ Qonuniy tartibga olishning kuchayishi. Soliq, ruxsat va boshqa talablarning quyilishi. ✓ Xavfsizlik muammolari. Yong‘in, suzishdagi xavf, jarohatlar, soxta platformalarga aldanish. ✓ Mahalla aholisi bilan munosabatlaragi muammolar. (shovqin)

3-rasm. Turistik dala hovlilar (dachalar) ning umumiy SWOT tahlili¹

Mazkur SWOT tahlil turistik dala hovlilarning keng imkoniyatlari mavjudligi ko‘rsatish bilan bir qatorda muammolar va hal qilinishi lozim bo‘lgan amaliy ishlarning mavjudligini ko‘rsatmoqda. Ushbu yangi segmentni hisobini yuritish ichki turizmni yanda rivojlantiruvchi va tezda u orqali daromad olish imkoni yuqori bo‘lgan joylashtirish shakli hisoblanib uning eng

¹ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan

kuchli tomonlaridan biri xususiylik, umumiy infratuzilmaning yaxlitligi hamda boshqaruv jarayonlarining soddaligida namoyon bo‘ladi.

Ammo mavsumiylik, nostandarlik hamda va‘da bilan real holat orasidagi farqning mavjudligi singari zaif tomonlari ham mavjud. Shu kabi muhim jihatlarni inobatga olgan holda raqamli boshqaruv, sertifikatlash va tartibga solish uchun risklarga qarshi iqtisodiy-huquqiy mexanizmlar ishlab chiqish zarur.

Tadqiqotimizda turistik dala hovlilarda ko‘rsatilayotgan xizmatlar sifati hamda samaradorligini aniqlashga doir model ishlab chiqish zaruratidan kelib chiqqan holda maxsus model ishlab chiqdik. (3-rasmga qarang).

Ushbu 3-rasm ma‘lumotlariga qaraydigan bo‘lsak turistik dala hovlilarning xizmat sifati va samaradorligini oshirish modeli nano-mikro-mezo darajalarning umumiy bog‘liqligiga asoslangan. Nano darajada iste‘molchi bahosi hamda kutilgan natija asosida shakllansa, mikro darajada tayyorlash ijara nazaorat bog‘liqligi asosida ta‘minlanadi, mezo darajada esa hududiy standartlar, nazorat hamda rag‘batlantirish vositalari asosida turizm va mehmondo‘stlik industriasining barqarorligini oshiradi. Mazkur modelning ilmiy jihatdan muhimligi shundan iboratki turistik dala hovlilar uchun xizmat sifati asosan “va‘da qilingan sharoit hamda real holat” orasidagi moslik va ijara joylarini tayyorlash jarayonining barqarorligi asosida aniqlanadi.

Xulosa va takliflar. Ushbu tadqiqot doirasida “turistik dala hovli” tushunchasiga mualliflik tarifi ishlab chiqilib, ushbu turistik obyektlarning turizm industriasida yangicha segment sifatida shakllantirish asoslab berilgan. Olib borilgan SWOT tahlil asosida mazkur segmentning hududiy turizmni rivojlantirishdagi imkoniyatlari yuqori ekanligini ko‘rsatmoqda. Ammo xizmat sifati, xizmatlar standartlashtirish, rekalam hamda huquqiy jihatdan tartibga solish kabi bir qancha muammolar borligi aniqlandi.

Tadqiqotimiz orqali taklif qilinayotgan turistik dala hovlilarning milliy reyestrini shakllantirishning konseptual modeli asosida ushbu joylashtirish obyektlarining faoliyatini tizimlashtirish, shaffofligini ta‘minlash hamda davlat xususiy sherikchilik mexanizmlarini yana kuchaytirishga xizmat qiladi. Shu o‘rinda xizmatlar samaradorligiga erishishda xizmat sifati, sun‘iy intellekt imkoniyatlari, raqamli texnologiyalar, infratuzilma, kadrlar salohiyati hamda mijozga qaratilgan yondashuv eng muhim sifatida keltiriladi.

Mazkur xulosalar asosida turizm va mehmondo‘stlik industriasida xizmatlar samaradorligini oshirishga doir quyidagi takliflar keltirib o‘tildi:

1. “turistik dala hovli” uchun maxsus sertifikatlash tizimini joriy qilish hamda faoliyatini to‘liq huquqiy talablarga javob beradiga faoliyatga aylantirish zarur;
2. “turistik dala hovli” tomonidan taqdim etilayotgan xizmatlar sifatini baholovchi aniq mezonlar ishlab chiqish asosida standartlashtirish lozim;
3. Innovatsiyalarni keng joriy etish orqali onlayn bronlash tizimlari, mobil ilovalar hamda zamonaviy marketing vositalaridan foydalanishni rag‘batlantirish asosida tashrif buyuruvchilar oqimini oshirish mumkin.
4. Mazkur obyekt egalari hamda ishchi xodimlari uchun maxsus o‘quv dasturlari va seminarlar tashkil etish orqali xizmat ko‘rsatish etikasini oshirish zarur;
5. Infratuzilmani rivojlantirish orqali transport, aloqa, kommunal xizmatlar va turistik infratuzilmani yaxshilash asosida turizm va mehmondo‘stlik industriasini rivojlantirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yilning 19-noyabr oyidagi PQ-348-son “O‘zbekiston Respublikasi Turizm qo‘mitasi faoliyatini tashkil etish va turizm sohasini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi Qarori. <https://lex.uz/docs/-7851788>
2. Brotherton, B. (1999). Towards a definitive view of the nature of hospitality and hospitality management. International Journal of Contemporary Hospitality Management, 11(4), 165–173.
3. Tuxliev I.S., Qudratov G‘.X., Pardaev M.Q. Turizmni rejalashtirish // Darslik. -T.: “Iqtisod-Moliya” nashriyoti, 2010. – 238 b.,
4. Safarov B.Sh. Milliy turizm xizmatlar bozorini innovatsion rivojlantirishning metodologik asoslari: monografiya. // T.: Fan va texnologiya, 2016. T. . 184 b.

З.Бакаев	Z.Bakaev
Пути повышения эффективности услуг, предоставляемых туристическими дачными хозяйствами в индустрии туризма	Ways to Improve the Efficiency of Services Provided by Tourist Country Houses (Dachas) in the Tourism Industry
Аннотация. В данной статье разработано специальное определение понятия «туристический дачный дом» как нового туристического объекта, ранее не представленного в научной литературе отечественных исследователей. Кроме того, проведено исследование, направленное на совершенствование методики оценки эффективности услуг, предоставляемых туристическими дачными домами (дачами). Ключевые слова: «туристическая дача», национальный реестр, модель, туристические средства размещения, краткосрочная аренда, туристические услуги, качество обслуживания, онлайн-бронирование, арендатор-гость.	Abstract. This article develops a specific definition of the concept of a “tourist country house” as a new type of tourism facility that has not previously been presented in the academic literature of national scholars. Furthermore, the study is aimed at improving the methodology for evaluating the efficiency of services provided by tourist country houses (dachas). Keywords: “tourist country house,” national register, model, tourist accommodation facilities, short-term rental, tourism services, service quality, online booking, tenant-guest.

Камилла Бахромовна Суюнова – доцент кафедры «Маркетинга», СамИЭС

СОВРЕМЕННЫЕ МАРКЕТИНГОВЫЕ ПОДХОДЫ В ТУРИЗМЕ

Аннотация. В статье были исследованы современные маркетинговые подходы в туризме Узбекистана в условиях цифровизации и развития Big Data. Также были проанализированы инструменты SMM, персонализированного маркетинга и интернет-коммуникаций. Определено их влияние на конкурентоспособность туристической отрасли, качество услуг, продвижение национального туристического бренда и повышение эффективности взаимодействия с туристами.

Ключевые слова: маркетинговые стратегии, туризм, маркетинговые инструменты, программный маркетинг, социальный медиа маркетинг, электронная коммерция, интернет-коммуникации.

Введение. Каждый год туристический сектор Узбекистана все чаще участвует в мировом рынке. Развитие сферы означает, что экономика страны может иметь мультипликативный эффект с другими отраслями, а так же оказывать сильное положительное влияние на темпы роста всех макроэкономических показателей¹.

Сегодняшнее маркетинговое использование - это первая потребность в высоких продажах. В конце концов, нам нужно использовать все виды распознавания продуктов или услуг в маркетинговом инструменте.

Маркетинг так же поможет настроить наши объявления, чтобы функционировать в нужное время для нужных потребителей.

В современную эпоху цифровых технологий анализ больших данных (Big Data) играет важнейшую роль в различных секторах экономики, включая туризм.

Big Data или большие данные - это структурированные или неструктурированные массивы данных большого объема. Их обрабатывают при помощи специальных автоматизированных инструментов, чтобы использовать для статистики, анализа, прогнозов и принятия решений².

Для Узбекистана, обладающего богатым культурным наследием и нацеленного на привлечение большего числа туристов, как иностранных, так и местных, применение Big Data открывает новые возможности для улучшения качества туристических услуг, увеличения доходов и обеспечения устойчивого развития. Для этого необходимо:

1. Проанализировать туристические потоки с использованием Big Data, так как технологии больших данных дают возможность собирать и изучать информацию о туристических потоках, включая данные о посещаемости, регионах происхождения туристов и их модели поведения. Это способствует выявлению потребностей туристов, так

¹ https://lex.uz/docs/7531353?ONDATE=20.05.2025+00&utm_source=chatgpt.com

² <https://trends.rbc.ru/trends/innovation/5d6c020b9a7947a740fea65c>

ISSN 2091-5187

❧ “SERVIS” ❧

Jurnal Samarqand iqtisodiyot va servis instituti tahririyat
bo‘limida nashrga tayyorlandi.

15.05.2026-yilda terishga berildi. 26.05.2026-yilda bosishga ruxsat etildi. Ofset
bosma qog‘ozi. Qog‘oz bichimi 60x84 $\frac{1}{8}$. “Times” garniturasini. Ofset bosma usuli.
Shartli bosma tabog‘i 15,4. Hisob-nashriyot
tabog‘i 14,37. Adadi 100 nusxa. Buyurtma № 0105A/26

Samarqand iqtisodiyot va servis institutining
matbaa bo‘limida chop etildi.
Litsenziya № 025316.
Reestr № X-119112.

Manzil: Samarqand shahri, Shoxruh ko‘chasi, 60-uy.

© Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, 2026.